



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

REPITISION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

## SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_ F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

### ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo‘yicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag‘i raqami bir xil bo‘lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma‘lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to‘ldirilgan yoki to‘ldirilmagan va imzosi qo‘yilmagan hollarda e‘tirozlar ko‘rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: **33 (516972)**

### FANLAR:

*Blok 1: Ona tili va adabiyoti*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1906870**

Toshkent – 2015



## ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Sen bo'lmasang so'zlarning Bag'ri ming tilim bo'lar, Onajon, ona tilim, Mening shohona tilim. (Barot Yarash) Ushbu she'riy parchada so'z yasovchi qo'shimchalar necha o'rinda ishtirok etgan?  
A) 3 B) 1 C) 4 D) 2
2. Vositasiz to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchiga ergashib kelgan gapni aniqlang.  
A) Sizni xafa qilishga botinolmaydi.  
B) Dilshod maktubni xolasiga berib, ko'chaga chiqib ketdi.  
C) Qiy-chuv bilan ularni yengib bo'lmaydi.  
D) Sizni kutib olish uchun keldim.
3. Qaysi javobda bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarga ikkitadan misol keltirilgan?  
A) nahotki, basharti, qadar, balki, hatto, faqat  
B) atigi, hatto, naq, mabodo, tufayli, uzra  
C) naq, negaki, sayin, atigi, hamda, uzra  
D) nahotki, hatto, sayin, ya'ni, tufayli, uzra
4. Xuddi so'z kabi gapning ham turi va xili, matndagi o'rniga qarab ma'nolari ko'p.  
Qaysi javobda ushbu gapdagi so'z turkumlari haqida noto'g'ri hukm bildirilgan?  
A) gapda to'qqizta mustaqil so'z turkumi bor  
B) gapda ega ot bilan ifodalangan  
C) gapda beshta yordamchi so'z turkumi bor  
D) gapda bir xil ma'noni ifodalovchi ikkita yordamchi so'z turkumi bor
5. Tarkibida faqat yuqori tor unlilar va undoshlar qatnashgan so'zlar qatorini aniqlang.  
A) muhit, zehn B) kibor, musiqa C) muqim, uyushiq  
D) musiqa, lirika
6. Turkiy tillar oilasi o'g'uz guruhiga kiruvchi tillarni aniqlang.  
A) uyg'ur, usmonli turk B) turkman, qirg'iz  
C) tatar, turkman D) ozarbayjon, usmonli turk
7. Asosida tovush o'zgarish hodisasi ro'y bergan so'z qatnashgan gapni toping.  
A) Hatto eng baland tog' ham quyoshni to'solmas.  
B) Birdan yomg'ir yog'ib, tarnovlardan shovullab suv oqa boshladi.  
C) Salimjon qilgan ishidan uyalib, qizarib ketdi.  
D) Derazamning oldida bir tup o'rik gulladi.
8. "Dunyo – kattakon ko'l. Zamona esa esib turgan yel. Oldingdagi to'lqin og'alar bo'lsa, ketindagi to'lqin inilardir. Navbat o'tishar, avvalgiday bo'lishar". Ushbu hikmatli so'zlar qaysi asarda keltirilgan?  
A) Navoiy "Mahbub ul-qulub" B) Abay "Nasihatlar"  
C) M.Koshg'ariy "Devonu lug'ot it-turk"  
D) Gulxaniy "Zarbulmasal"
9. "Ravshan" dostonida Qoraxon podsho kimdan qo'rqar edi?  
A) to'rtta polvondan B) Ravshandan  
C) Kampirning olti o'g'lidan D) Hasanxondan
10. Javoblardan to'g'ri yozilgan nomni aniqlang.  
A) Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab quvvatlash jamg'armasi  
B) Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi  
C) Xususiy Tadbirkorlik va Kichik Biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi  
D) Xususiy tadbirkorlik va Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi
11. Charxi ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin, Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin! Ushbu baytda qo'llangan she'riy sana'tni toping.  
A) talmeh B) tanosub C) tazod D) ruju
12. Qaysi gapda orttirma darajadagi sifat bilan ifodalangan narsaning turli belgilarini bildirgan uyushiq aniqlovchi qatnashgan?  
A) Serchang, sershovqin ko'chalarda odamlar daryoday oqib borar edi.  
B) Bog'imizda sap-sariq va qip-qizil atirgullar qiyg'os ochildi.  
C) Tadbirda maktab haqida, ustozlar haqida iliq va samimiy fikrlar aytili.  
D) Biz dum-dumaloq, sap-sariq olmalarni terib oldik.
13. Qaysi gapda tinish belgisining qo'shma gap qismlari orasida qo'yilish qoidalariga rioya qilinmagan?  
A) Taqdirin qo'l bilan yaratatur inson,  
G'oyibdan kelajak baxt – bir afsona.  
B) Jimlik tilaydi yurak,  
Sizdan bugun birgina o'tinch,  
Yolg'iz qo'ying meni do'stlarim,  
Charchganman, orom olayin.  
C) Halimaxonni ko'rdim, sira o'zgarmabdi: hamon o'sha-o'sha.  
D) Hozir qishloqda yoz, bu yerga esa bahor endigina qadam qo'ygandek edi: qiyaliklarni qoplagan qoqigullar yulduz parchalariday yaltiraydi, qorli cho'qqilar orasidan yugurib pastga tushib kelayotgan jilg'alarning bo'yida chuhcmomolar yaproq yozmoqda.
14. Qo'shma fe'l ishtirok etgan misrani aniqlang.  
A) Gul bargini nasim tildi – to'kildi.  
B) Saboga hikoyat qildi – to'kildi.  
C) Falak ishiga boq: bir haftada gul  
D) Chiqdi, g'unchaladi, kuldi – to'kildi.
15. Munisning "Ishqing o'tidin o'rtanadur joni nizorim ..." deb boshlanuvchi asarining janrini toping.  
A) tuyuq B) g'azal C) mustazod D) masnaviy
16. G'am seli bilan ko'ngli vayronag'a o'xshaydur ... da u Sa'dullo hayronag'a o'xshaydur. Ushbu she'riy parchada tushirib qoldirilgan taxallusni toping.  
A) Nodira B) Furqat C) Zavqiy D) Uvaysiy
17. Qaysi javobda "Ravshan" dostoni haqida to'g'ri ma'lumot keltirilgan?  
A) Doston birinchi marta Mahmud Zaripov tomonidan Ergash Jumanbulbul o'g'li og'zidan yozib olingan.  
B) Doston birinchi marta Mahmud Zaripov tomonidan Fozil Yo'ldosh o'g'li og'zidan yozib olingan.  
C) Doston Hodi Zarif tomonidan Kichik Bo'ron og'zidan yozib olingan.  
D) Doston birinchi marta Hodi Zarif tomonidan Ergash Jumanbulbul o'g'li og'zidan yozib olingan.

18. Quyidagi misralar muallifi kim, she'ning vaznini aniqlang.  
**Alisherga alla aytib uxlatgan**  
**Sen-ona.**  
**Og'ushida Bobur kamolga yetgan**  
**Sen-ona.**  
A) *A. Muxtor, qo'shma vazn* B) *A. Oripov, sodda vazn*  
C) *Mirtemir, qo'shma vazn* D) *E. Vohidov, murakkab vazn*
19. Agar ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilsa, muallif gapining egasi o'zlashtirma gapda qanday sintaktik vazifa bajaradi?  
A) *aniqlovchi* B) *to'ldiruvchi* C) *hol* D) *ega*
20. Jadid adabiyotining qaysi namoyandasi buyuk boshqird olimi Zaki Validiy va yosh o'zbek adibi Fitrat asarlari ta'sirida mudarris emas, "O'zbek milliy yozuvchisi" bo'lishga ahd qiladi?  
A) *Hamza* B) *Qodiriy* C) *Usmon Nosir* D) *Cho'lpon*
21. Quyidagi she'riy misralarda nechta gapda ega qatnashgan?  
**Shovulladi tun bo'yi shamol,**  
**Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.**  
**Shivirlading yonimda xushhol:**  
**"Yana keldi, do'stinam, bahor".** (A.Oripov)  
A) 2 B) 3 C) 1 D) 4
22. Quyida keltirilgan misralarda **-lar** qo'shimchasi qanday ma'no anglatgan?  
**Sening xotirangni unutmang aslo,**  
**Mening yuraklarim, O'rta Osiyo.**  
A) *ko'plik* B) *tur* C) *hurmat* D) *kuchaytirish*
23. Qaysi javobda shakl yasovchi qo'shimchalar bilan omonimlik hosil qila oladigan so'z yasovchi qo'shimchalar berilgan?  
A) *-siz, -lab, -larcha* B) *-in, -ma, -an*  
C) *-chak, -larcha, -ch* D) *-cha, -chak, -lay*
24. Badiiy uslubda shakldosh holatda qo'llash mumkin bo'lgan kelishik qo'shimchalarini aniqlang.  
A) *tushum, chiqish* B) *tushum, jo'nalish*  
C) *qaratqich, tushum* D) *jo'nalish, o'rin-payt*
25. Quyida keltirilgan gapdagi yasama so'zlar sonini aniqlang.  
**Sen o'z zanjirlaring ichida eng uqubatlisi, eng og'riqlisi bo'lgan tobelik va mutelik zanjiridan endi xalossan.**  
A) 3 B) 6 C) 4 D) 5
26. Tarkibida ravish o'rnida kelgan sifat mavjud bo'lgan so'z birikmasini aniqlang.  
A) *tez kelmoq* B) *ko'p odam* C) *tiniq daryo*  
D) *yaxshi kiyingan*
27. Shoir o'z faoliyati bilan XV asr o'zbek adabiyotini mislsiz taraqqiyot cho'qqilariga ko'tarib, uyg'onish davri sifatida atalayotgan bu davr madaniy va adabiy hayotini o'z ijodi bilan bezadi.  
Ushbu gapda ishtirok etgan fe'l nisbatlari haqidagi to'g'ri hukmni toping.  
A) 2 ta aniq, 1 ta orttirma, 1 ta majhul nisbatdagi fe'l ishtirok etgan  
B) 1 ta orttirma, 1 ta aniq, 1 ta majhul nisbatdagi fe'l ishtirok etgan  
C) 3 ta aniq, 1 ta majhul nisbatdagi fe'l ishtirok etgan  
D) 2 ta aniq, 1 ta majhul nisbatdagi fe'l ishtirok etgan
28. Xayriddin Salohning "Yulduzlar afsonasi" she'rida qaysi yulduz bilan bog'iq xalq rivoyati keltiriladi?  
A) *Cho'lpon* B) *Mushtariy* C) *Zuhro* D) *Hulkar*
29. Muhammadrizo Ogahiyning "Dahr uyi bunyodkim, suv uzradur, mahkam emas" asari qaysi janrda yozilgan?  
A) *muxammas* B) *tarji'band* C) *qasida* D) *g'azal*
30. Quyida keltirilgan gapda nechta yasama sifat mavjud?  
**Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad – milliy o'zligimizni chuqurroq anglash.**  
A) 2 B) *yasama sifat qatnashmagan* C) 1 D) 3
31. Y. E. Bertels quyidagi fikrni X asrda qayerda yaratilgan adabiyot haqida yozgan?  
**"Aslini aytganda, til nuqtayi nazaridan bu davr adabiyotini fors va arab adabiyotiga bo'lish - haqiqatan shartli narsadir"**  
A) *Toshkentda* B) *Samarqandda* C) *Qashqarda*  
D) *Buxoroda*
32. Bo'ynim uza, "Ayn" in aylagil tavq,  
"Shin" in qil ichimga shu'layi shavq.  
"Qof" in menga ayla ko'hi anduh,  
Ko'nglumga g'amini ko'h to ko'h.  
Navoiy qalamiga mansub ushbu misralar quyidagi qaysi qahramon tilidan bayon etilgan?  
A) *Majnun* B) *Farhod* C) *Shirin* D) *Bahrom*
33. Qaysi gapda bo'lishsizlik olmoshi ega vazifasida kelgan?  
A) *Hech narsa yeyishni xohlamayman.*  
B) *Haqing berma hech kimga.*  
C) *U haqda hech qanaqa xat-xabar yo'q.*  
D) *Ustun bo'lgan emas dunyoga hech kim.*
34. Qaysi javobda tarkibidagi ko'makchi morfemagina shakldosh bo'lgan omonim so'z berilgan?  
A) *qisqich* B) *terim* C) *kechik* D) *bo'g'ma*
35. Qaysi javobda payt ravishlari ko'rsatilgan?  
1) bugungi; 2) buguncha; 3) hozirgi; 4) hozirgacha;  
5) so'nggi; 6) so'ngra  
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6
36. Boshimizni bilim kuchi uyg'otsa, bo'lg'usidir bizning uchun bayram.  
Ushbu gap turini aniqlang.  
A) *hol ergash gapli qo'shma gap*  
B) *ega ergash gapli qo'shma gap*  
C) *kesim ergash gapli qo'shma gap*  
D) *to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap*

## BIOLOGIYA

37. Odamdagi ko'z gavhari uchun xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsating.  
1) ko'zga tushuvchi yorug'lik nurini sindirib o'tkazadi;  
2) yaqindagi buyumlarga qaralganda yassilashadi;  
3) akkomodatsiya hodisasini ta'minlaydi;  
4) atrofni kipriksimon muskullar o'rab turadi;  
5) uning do'ngligining kamayishi tufayli miopiya holatlari kuzatiladi;  
6) uning do'ngligining kamayishi uzoqdan ko'rish kasalligini keltirib chiqaradi.  
A) 3, 4, 5 B) 4, 5, 6 C) 1, 4, 6 D) 1, 2, 3
38. Gametogeneznning qaysi bosqichida interkinez holati kuzatiladi?  
A) *yetilish* B) *ko'payish* C) *o'sish* D) *shakllanish*
39. Qaysi javobda yumaloq oqsillar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) amilaza; 2) odam sochidagi oqsil; 3) muskul oqsili;  
4) proteaza; 5) ipak oqsili; 6) lipaza  
A) 2, 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 2, 5, 6 D) 1, 2, 4
40. Ozuqa zanjirining ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.  
A) *bug'doy - chigirtka - kaltakesak - lochin*  
B) *lochin - sichqon - chigirtka - bug'doy*  
C) *bug'doy - chigirtka - toshbaqa - lochin*  
D) *bug'doy - kaltakesak - chigirtka - lochin*

41. Qaysi javobda kuksoniya o'simligiga xos aromorfoz ko'rsatilgan?  
A) barglarning paydo bo'lishi B) rizoidning paydo bo'lishi  
C) poyaning paydo bo'lishi  
D) sporalarning paydo bo'lishi
42. Bo'r davrida iqlim keskin o'zgarishi tufayli gulli o'simliklarning ko'payishi (a) va ko'pgina paporotniksimonlar va ochiq urug'lilar kamayishi (b) qanday hodisalarga misol bo'ladi?  
A) a - stabilashtiruvchi tanlanish; b - harakatlantiruvchi tanlanish  
B) a - harakatlantiruvchi tanlanish; b - stabilashtiruvchi tanlanish  
C) a - harakatlantiruvchi tanlanish; b - dizruptiv tanlanish  
D) a - harakatlantiruvchi tanlanish; b - harakatlantiruvchi tanlanish
43. Noto'g'ri fikrni aniqlang.  
A) barcha hujayraviy hayot shakllarida ATF sintezlanadi  
B) xushboy no'xatning mikrosporasidagi xromosomalar soni 7 ta  
C) barcha hayot shakllarida adenin va sitozin uchraydi  
D) fenilalanin kodoniga t-RNKning UUU tripleti komplementar
44. Tuxumidan lichinka chiquvchi umurtqasiz organizmlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
1) aktiniya; 2) qandala; 3) triton; 4) exinokokk; 5) suvarak; 6) nereida; 7) sargan; 8) termit; 9) biy  
A) 1, 2, 3, 4, 5, 9 B) 1, 2, 5, 6, 8 C) 2, 4, 5, 6, 7  
D) 2, 3, 4, 6, 9
45. Qaysi javobda yadro membranasiga xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) bir qavat; 2) ikki qavat; 3) sitoplazmaga tutash membranasida ribosomalar joylashgan; 4) ichki tomondan membranasida silliq; 5) unda ko'p teshikchalar mavjud; 6) tashqi membranasida silliq; 7) endoplazmatik to'r kanallari yadroning ichki membranalari bilan tutashgan; 8) sitoplazma va yadro shirasi tarkibidagi farqni saqlab turadi; 9) tashqi membranalari hujayraning umumiy ichki aylanma tizimi bilan tutashgan; 10) yadro membranasining tuzilishi va kimyoviy tarkibi Golji majmuasi membranasida tuzilishi va kimyoviy tarkibidan farq qiladi; 11) hujayra membrana tizimining bir qismi hisoblanadi  
A) 1, 3, 4, 5, 8, 9 B) 2, 3, 5, 6, 7, 10, 11  
C) 2, 3, 5, 8, 9, 11 D) 2, 3, 4, 5, 7, 10
46. Tuxumidan yetuk individga o'xshash organizm chiquvchi hayvonlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
1) tovusko'z; 2) kvaksha; 3) baqachanoq; 4) oq planariya; 5) ildam kaltakesak; 6) yomg'ir chuvalchangi  
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 4 C) 1, 5, 6 D) 4, 5, 6
47. Qaysi javobda keltirilgan nukleotidlar izchilligini Hae III restriktazasi tanib kesadi?  
A) G - A B) A - C C) G - G D) G - C
48. Qaysi javobda qarag'aytoifa bo'limiga mansub o'simliklar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) ginkgo biloba; 2) qarag'ay; 3) sharq sauri; 4) kuksoniya; 5) lipa; 6) psilofit; 7) kordait; 8) sekvoyadendron; 9) zuhrasoch; 10) virgin archasi  
A) 3, 4, 5, 8 B) 2, 3, 9, 10 C) 2, 3, 6, 10 D) 1, 3, 7, 8
49. Bakteriyalar tomonidan elementar azotning atmosferaga ajratilishi (a) va ammiakning azot kislotaga aylantirilishi (b) qanday nomlanadi?  
A) a-denitrifikatsiya; b-xemosintez  
B) a-ammonifikatsiya; b-nitrifikatsiya  
C) a-nitrifikatsiya; b-denitrifikatsiya  
D) a-azotfiksatsiya; b-denitrifikatsiya
50. Oilaning gul formulasi  $Gk_{(5)}Gt_{(5)}Ch_5U_1$  bo'lgan o'simlik navlarini belgilang.  
1) "Obidov"; 2) "Samarqand"; 3) "Yulduz"; 4) "Zarafshon"; 5) "Farhod"; 6) "Vatan"; 7) "Gultish"; 8) "Lola"; 9) "Nimrang"  
A) 1, 2, 9 B) 4, 6, 9 C) 5, 7, 8 D) 1, 2, 3, 4, 6
51. Qaysi javobda yo'rg'a tuvaloqqa xos bo'lgan ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) tez yuguradi; 2) uzoqdan ko'zga tashlanmaydi; 3) juft bo'lib yashaydi; 4) diafragmasi rivojlangan; 5) daraxt shoxlariga uya quradi; 6) "Qizil kitob"ga kiritilgan; 7) urg'ochisi bolalarini himoya qilish uchun nayrang ishlatadi; 8) tuyaqushlar turkumiga mansub  
A) 1, 2, 4, 5, 8 B) 1, 3, 4, 6, 7 C) 1, 2, 3, 6, 7  
D) 1, 2, 6, 7, 8
52. Sog'lom odamning somatik hujayrasida mitozning profaza bosqichida xromosoma (a) va DNK (b) lar sonini aniqlang.  
A) a-23; b-46 B) a-46; b-92 C) a-46; b-46  
D) a-92; b-92
53. Ayirish organlari halqali chuvalchanglarnikiga o'xshash bo'ladigan organizmlarni aniqlang.  
A) lansetnik, oq planariya, suv shillig'i  
B) oq planariya, daryo qisqichbaqasi  
C) suv shillig'i, zog'ora baliq, baqa  
D) baqachanoq, krevetka, lansetnik
54. Qaysi javobda odam bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining turli qismlarida joylashgan nerv markazlari to'g'ri juftlab ko'rsatilgan?  
1) ensa; 2) chakka; 3) peshona; 4) tepaning oldingi markaziy pushtasi; 5) tepaning orqa markaziy pushtasi;  
a) ko'rish markazi; b) hid bilish markazi; c) terining sezgi markazi; d) harakat markazi; e) eshitish markazi  
A) 1-a, 2-e, 3-d, 4-b, 5-c B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-e  
C) 1-c, 2-d, 3-b, 4-e, 5-a D) 1-a, 2-e, 3-b, 4-d, 5-c
55. Ayirish sistemasi yomg'ir chuvalchangining ayirish sistemasiga o'xshaydigan organizmlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.  
A) podalariy, kulrang satir, tovusko'z, apollon  
B) chirildoq, maxaon, shira, qovoqari  
C) bitiniya, midiya, zaxkash, daryo qisqichbaqasi, lansetnik  
D) butli o'rgimchak, kana, bo'ka, iskabtopar, maxaon
56. Hayvon hujayrasida 10070 molekula ATF sintezlandi. Shundan necha molekula ATF sitoplazmada anaerob sharoitda sintezlangan?  
A) 4000 ta B) 560 ta C) 2768 ta D) 530 ta
57. Fotoperiodizmga misol bo'la oladigan hodisalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) o'simliklarda fotosintezning borishi; 2) sodda hayvonlarning yorug'likka qarab harakatlanishi; 3) zarg'aldoqning migratsiyasi; 4) o'simlikning bargini quyoshga o'girishi; 5) ayiq va bo'rsiqning qishki uyquga ketishi; 6) o'simliklarning bakteriyalarga qarshi fitoaleksin ishlab chiqarishi; 7) gornostayning tullashi; 8) kuropatkaning urchishi; 9) organik moddalarning detritofaglar tomonidan parchalanishi  
A) 3, 5, 7, 8 B) 1, 3, 6, 7 C) 2, 5, 7, 9 D) 4, 6, 8, 9

58. Kataraktaning ikki xil irsiy shakllari bor. Birinchisi autosoma dominant tipda, ikkinchisi autosoma retsessiv tipda birikmagan holda irsiylanadi. Kataraktaning autosoma dominant tipi bilan kasallangan geterozigotali, retsessiv tipi bo'yicha sog' va gomozigotali qo'yo'z er-xotin nikohidan sog'lom, ko'k ko'zli farzand tug'ilgan. Tug'ilgan farzandlarning necha foizi uchta belgi bo'yicha gomozigotali bo'ladi?  
A) 50 B) 43,75 C) 31,25 D) 25
59. Yaqindan ko'rish (miopiya) autosomada joylashgan dominant gen, daltonizm X xromosomaga birikkan resessiv gen bilan ifodalanadi. Yaqindan ko'radigan ota-onadan ikkala belgi bo'yicha sog'lom o'g'il bola va miopiya bilan kasallangan, daltonik o'g'il bola tug'ilgan. Tug'ilgan farzandlarning necha foizi miopiya kasalligi bo'yicha sog' va daltonik bo'ladi?  
A) 18,75 B) 37,5 C) 56,25 D) 6,25
60. Odamlarda I qon guruhi I<sup>0</sup>I<sup>0</sup>, II qon guruhi I<sup>A</sup>I<sup>A</sup>; I<sup>A</sup>I<sup>O</sup>; III qon guruhi I<sup>B</sup>I<sup>B</sup>; I<sup>B</sup>I<sup>O</sup>; IV qon guruhi I<sup>A</sup>I<sup>B</sup> genotipi bilan ifodalanadi. Gomozigota II qon guruhiga ega ayol geterozigota III qon guruhli erkakka turmushga chiqdi. Ushbu oilada tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlar qanday qon guruhli odamlarga donorlik qila oladi?  
A) I, II B) IV, III C) I, II, III va IV D) IV
61. Quyidagi qaysi misollar divergensiya hodisasiga mos kelmaydi?  
1) yovvoyi bankiv tovug'idan sertuxum zotlarning kelib chiqishi;  
2) yovvoyi kaptar turidan kaptar zotlarining yaratilishi;  
3) oddiy va xaltali krotning tashqi tomondan o'xshashligi;  
4) akula va ixtiozavr tanasining suyri shaklida bo'lishi;  
5) ixtiozavr va delfinning tana tuzilishining o'xshashligi;  
6) karam navlarining yovvoyi karam turidan kelib chiqishi.  
A) 3, 4, 5 B) 3, 5, 6 C) 1, 2, 6 D) 1, 3, 4
62. Odamlarda kechadigan reabsorbsiya jarayoni kuchaysa(a) va susaysa(b) siydik ajralishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?  
1) ko'payadi; 2) kamayadi; 3) siydik ajralishiga ta'sir etmaydi.  
A) a - 3; b - 1 B) a - 1; b - 2 C) a - 2; b - 1 D) a - 2; b - 3
63. Suqsun va gavial uchun umumiy belgilarni ko'rsating.  
1) rivojlanishi metamorfozsiz; 2) oyoqlaridagi parda tortilgan barmoqlar soni; 3) yuragining kameralari soni; 4) tana haroratining doimiyliigi; 5) gastrulyatsiya turi.  
A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 5 C) 1, 2, 5 D) 1, 3, 5
64. Barglari novdada qarama-qarshi joylashgan ko'p yillik o'simliklarni aniqlang.  
A) rayhon, yalpiz, kiyiko't B) nastarin, ligustrum, kiyiko't C) ligustrum, kiyiko't, rayhon D) atirgul, oqquray, kiyiko't
65. Qaysi javobda suvda bolalaydigan sutemizuvchilar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) tulen; 2) kasatka; 3) kashalot; 4) delfin; 5) morj; 6) dengiz mushugi; 7) pingvin; 8) kit  
A) 2, 3, 5, 7 B) 2, 3, 4, 8 C) 1, 2, 4, 6 D) 1, 4, 6, 7
66. Itlarning bir zotida tanasi rangi ikki juft allel bo'lmagan genlar bilan boshqariladi. Genotip A-B- holatda tanasi rangi qora, A-bb holatda malla; aaB- holatda jigarrang hosil bo'ladi. Ikki juft retsessiv genga ega bo'lgan itlar tanasi och sariq rangda bo'ladi. Qora urg'ochi va malla rangdagi erkak itlar chatishtirilganda qora, malla, och sariq, jigarrang itlar hosil bo'lgan. Jigarrang kuchukchalarni hisobga olmaganda, barcha genotipik guruhlar orasida digeterozigotalar necha foizni tashkil etadi?  
A) 20 B) 50 C) 25 D) 40
67. Dengiz mushugi (a) va tulen (b) bolalari uchun xos xususiyatlar to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
1) qishda tug'iladi; 2) terisi oq jun bilan qoplangan; 3) terisi qora jun bilan qoplangan; 4) yoz boshlarida tug'iladi; 5) momiq juni dag'al jun bilan almashgandan so'ng suza boshlaydi; 6) suza boshlagandan so'ng dag'al juni momiq jun bilan almashinadi  
A) a-3, 4; b-1, 2, 5 B) a-1, 2, 6; b-3, 4, 5 C) a-1, 3, 5; b-1, 2, 6 D) a-3, 4, 5; b-2, 4, 6
68. Qaysi javobda so'rg'ichli va tasmasimon chuvalchanglar uchun umumiy bo'lgan parazit yashashga moslanish belgilari to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) tanasining kipriklar bilan qoplanganligi; 2) tanasining qalin kutikula bilan qoplanganligi; 3) ko'p tuxum qo'yish; 4) so'rg'ichlarining rivojlanishi; 5) hazm sistemasining yo'qolib ketganligi  
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 5 D) 1, 4, 5
69. Olcha (a), turp (b), qalampir (c) o'simliklarining barg hujayralari kariotipida xromosomalar soni nechtaga teng?  
1) 48; 2) 32; 3) 18; 4) 16; 5) 32; 6) 24; 7) 46  
A) a - 2; b-3; c-1 B) a-4; b-3; c-1 C) a-5; b-3; c-1 D) a-2; b-4; c-7
70. Qaysi javobda magnoliasimonlar uchun xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1) gulqo'rg'on bo'laklari halqada 4-5 tadan o'rtnashgan; 2) poyasi kambiyli, yo'g'onlasha oladi; 3) murtak ildizchasidan hosil bo'lgan ildizi tez nobud bo'ladi; 4) barg yaprog'i patsimon yoki panjasimon tomirlangan; 5) bargi yoysimon yoki parallel tomirlangan; 6) gulqo'rg'oni murakkab yoki oddiy; 7) unayotgan o'simlik urug'pallabargi yer ostida qoladi  
A) 1, 5, 6 B) 3, 5, 7 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 4, 6
71. Chuchmoma va boychechakning umumiy jihatini aniqlang.  
A) mevasining ko'sakligi, murtak xaltasidagi hujayralar soni  
B) loladoshlar oilasiga kirishi, ko'sak meva hosil qilishi  
C) gulining qiyshiqiligi, chang donasidagi hujayralar soni  
D) bitta oilaga mansubligi, gulining to'g'riligi
72. Qaysi javobda loladoshlar (a) va lolasimonlar (b) ga mansub o'simliklar to'g'ri juftlab ko'rsatilgan?  
1) olg'i; 2) xolmon; 3) xarduma; 4) kamxastak; 5) oq jo'xori; 6) matur; 7) akatsiya; 8) qozonyuvg'ich  
A) a - 3, 5, 8; b - 1, 2, 4 B) a - 4, 5, 7; b - 1 C) a - 3, 5, 6; b - 1, 2 D) a - 1, 2; b - 3, 5, 6

## KIMYO

73. Noma'lum elementning bromidi va bromatining molyar massalari nisbati 1:1,403 ga teng. Noma'lum elementni aniqlang.  
A) Sr B) K C) Fe D) Mg
74.  $A + xB \rightarrow 2C$  reaksiyada  $0,05 \cdot 10^2$  mol A moddaning 20%i sarflangan, B ning 25%i ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, B ning necha moli ortib qolgan? (Km=1)  
A) 4 B) 3 C) 1 D) 2
75. Qaysi zarrachalarda kislorodning valentligi ikki, lekin oksidlanish darajasi -2 emas?  
1) fluor oksidi; 2) vodorod peroksidi; 3) is gazi; 4) gidroksoniy kationi  
A) 3, 4 B) 1, 3 C) 1, 2 D) 2, 4
76. 3,2 g kremniy va uglerod aralashmasi qizdirilgan ishqor eritmasi bilan ta'sirlashganda 2,56 l gaz ajraldi. Aralashmadagi uglerodning massa ulushini toping.  
A) 0,7 B) 0,4 C) 0,5 D) 0,6

77. 0,5 mol natriy benzoat 0,3 mol  $NaOH$  bilan qizdirilganda hosil bo'lgan benzoldan kumol olish uchun qanday massadagi (g) 2-brompropan kerak?  
A) 6,15 B) 23,4 C) 36,9 D) 3,9
78. Moddalardan qaysi bir(lar) i ishqorda eriydi, lekin konsentrlangan nitrat kislotada erimaydi?  
1) aluminiy; 2) ammoniy karbonat; 3) soda; 4) rux oksidi; 5) mis (II) nitrat  
A) 1, 5 B) faqat 3 C) 2, 3, 5 D) 3, 4
79. 0,02 mol kaliy dixromatni qaytarish uchun necha gramm natriy nitrit va sulfat kislotaga zarur?  
A) 5,52; 13,72 B) 4,14; 7,84 C) 4,14; 13,72 D) 5,52; 7,84
80.  $H_2SO_3$  molekulasidagi  $\sigma$ -bog'larni hosil qilishda qatnashgan  $s(a)$ ,  $p(b)$ ,  $sp^2(c)$  va  $sp^3(d)$  orbitalar sonini aniqlang.  
A) a-2, b-0, c-4, d-8 B) a-2, b-0, c-3, d-12  
C) a-2, b-0, c-1, d-7 D) a-2, b-2, c-3, d-8
81. 3 M li  $CuSO_4$  eritmasi ( $\rho=1,2$  g/ml) elektroliz qilinganda 4,21 M li eritma ( $\rho=1,2$  g/ml) hosil bo'ldi va eritma massasi 138 g ga kamaydi. Hosil bo'lgan eritma massasini (g) aniqlang.  
A) 570 B) 800 C) 342 D) 480
82. Quyidagi moddalarni kristall panjaralari turi bilan to'g'ri juftlab ko'rsating.  
1) metanol; 2) xrom; 3) natriy yodid; 4) olmos; 5) vodorod; 6) geliy;  
a) molekulyar; b) atom; c) ion; d) metall.  
A) 1-a; 2-c; 3-c; 4-b; 5-a; 6-a B) 1-b; 2-d; 3-c; 4-b; 5-a; 6-a  
C) 1-a; 2-d; 3-c; 4-b; 5-a; 6-b D) 1-a; 2-d; 3-c; 4-b; 5-a; 6-a
83. Natriy sulfat dissotsialanishidan hosil bo'lgan ionlar soni dissotsialanmagan molekular tarkibidagi atomlar soniga teng bo'lsa, dissotsialanish darajasini ( $\alpha\%$ ) toping.  
A) 70 B) 87,5 C) 90 D) 78
84. Vodorod va kislorod atomlari sonlari nisbati 2,5:2 bo'lgan ( $\rho=1,25$  g/ml) sulfat kislotaga eritmasida necha gramm oltingugurt (VI) oksid eritib tarkibida 1 mol sulfat kislotaga 0,3 mol oltingugurt (VI) oksid to'g'ri keladigan 488 g oleum olish mumkin?  
A) 96 B) 160 C) 256 D) 352
85. Elektronlari soni bir xil bo'lgan metan va argon aralashmasining  $0^\circ C$  va 1 atm bosimdagi zichligini (g/l) aniqlang.  
A) 1,3 B) 2,2 C) 3,4 D) 1,1
86. 0,2 mol uratsilning yonishi uchun yetarli miqdordagi kislorodni olishga sarflanadigan  $KMnO_4$  massasini (g) toping.  
A) 126,4 B) 265,4 C) 252,8 D) 245,8
87.  $HCl$  ning 30% li ( $\rho=1,2$  g/ml) eritmasidan 1M li eritma tayyorlash uchun dastlabki eritmani necha marta suyultirish kerak?  
A) 10,14 B) 5,85 C) 9,86 D) 7,88
88. 81 g aldegid 82,62 g spirtning oksidlanishidan hosil bo'lsa, shunday massadagi spirt olinadigan kislotaning xlor bilan o'zaro ta'siridan hosil bo'ladigan monoxlorli organik moddaning massasini (g) toping.  
A) 60,95 B) 110,6 C) 121,9 D) 133,2
89. Umumiy massasi  $0,147 \cdot 10^2$  g bo'lgan fenol va aromatik uglevodorod aralashmasi bromli suv bilan ta'sirlashganda 33,1 g cho'kma hosil bo'ldi. Agar fenolning uglevodorodga mol nisbati 2:1 bo'lsa, uglevodorod nomini aniqlang.  
A) o-ksilol B) krezol C) kumol D) stirol
90.  $C_7H_{16}$  tarkibli uglevodorodning izomerlari soni nechta?  
A) 7 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 9 ta
91. Yog'ning to'la yonishi uchun 23,2 g kislorod sarf bo'ldi. Bunda 0,49 mol suv va 0,51 mol karbonat anhidrid gazi hosil bo'ldi. Yog'ning molyar (g/mol) massasini aniqlang.  
A) 806 B) 834 C) 890 D) 862
92. Gustavson usuli bo'yicha 2,6-dixloroktandan qanday sikloalkan olinadi?  
A) izopropilsiklopentan B) 1-metil-2-etilsiklopentan  
C) etilsiklogeksan D) 1,1-dimetilsiklogeksan
93. Qaysi birikmalar tarkibida  $sp^3$ -gibridlanish mavjud?  
1) perxlorat kislotaga; 2) ammiak; 3) uglerod (IV) oksid; 4)  $\text{этен}$ ; 5) oltingugurt (VI) oksid; 6) ammoniy xlorid.  
A) 1, 2, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 3 D) 2, 3, 4, 5, 6
94.  $B_2H_6$  va  $H_2O$  ning hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 95,3 va 285,8 kJ/mol ga teng.  $B_2O_3$  ning hosil bo'lish issiqligini toping. (44,8 l (n.sh.) diboran gazi yonishidan 4071,2 kJ issiqlik ajraladi.)  
A) 2035,6 B) 571,6 C) 2547 D) 1273,5
95. 0,2 mol aluminiy bromid tarkibidagi atomlar soniga teng sonda kislorod atomi tutgan karbonat anhidrid massasini (g) toping.  
A) 17,6 B) 23,5 C) 11,7 D) 35,2
96.  $Na_2CO_3$  va  $Cr_2(SO_4)_3$  eritmalari qanday nisbatda aralashtirilsa, hosil bo'lgan eritmada karbonat ionlari mavjud bo'ladi? (gidroliz hisobga olinmasin)  
1)  $2Cr_2(SO_4)_3 + 3Na_2CO_3$ ; 2)  $1Cr_2(SO_4)_3 + 3Na_2CO_3$ ; 3)  $3Cr_2(SO_4)_3 + 2Na_2CO_3$ ; 4)  $2Cr_2(SO_4)_3 + 7Na_2CO_3$ ; 5)  $1Cr_2(SO_4)_3 + 4Na_2CO_3$ ; 6)  $2Cr_2(SO_4)_3 + 5Na_2CO_3$   
A) 1, 2, 3, 6 B) 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 2, 5, 6
97. Massasi 80 g  $NaCl$ ,  $CaCO_3$  va  $ZnS$  aralashmasi ortiqcha xlorid kislotaga bilan ta'sirlashganda 0,6 mol gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Ushbu gazlar  $SO_2$  bilan ta'sirlashganda 19,2 g qattiq modda olindi. Dastlabki aralashmadagi moddalarning massa ulushini (%) aniqlang.  
A) 15,5; 35,5; 49 B) 20; 50; 30 C) 26,5; 25; 48,5  
D) 45; 10,5; 45,5
98. Kannissaro reaksiyasi bo'yicha 0,6 mol chumoli aldegid bilan reaksiyaga kirishish uchun 50% li  $NaOH$  eritmasidan necha gramm kerak?  
A) 18 B) 6 C) 24 D) 12
99. Tarkibida allotropik shakl o'zgarishli elementlar bo'lgan moddalarni toping.  
1)  $HNO_3$ ; 2)  $KBr$ ; 3)  $FeS_2$ ; 4)  $LiF$ ; 5)  $CH_4$ ; 6)  $N_2H_4$ ; 7)  $SnCl_4$ ; 8)  $Fr_2Se$   
A) 1, 3, 5, 7, 8 B) 1, 3, 4, 6, 8 C) 2, 4, 5, 7  
D) 3, 5, 6, 7, 8
100.  $0,088 \cdot 10^2$  g etilasetatning kislotali gidrolizidan olingan karbon kislotaga o'yuvchi natriy eritmasidan o'tkazilganda 2,05 g mahsulot olindi. Agar birinchi reaksiya unumi ikkinchi reaksiya unumiga teng bo'lsa, reaksiya unumini (%) toping.  
A) 90 B) 60 C) 75 D) 50
101. Quyida elementlarning tartib raqami keltirilgan. Shu yo'nalishda elementlarning atom radiusi qanday o'zgaradi?  
 $37 \xrightarrow{1} 11 \xrightarrow{2} 12 \xrightarrow{3} 4$   
a) ortadi; b) kamayadi; c) o'zgarmaydi  
A) 1 b; 2 b; 3 a B) 1 c; 2 b; 3 a C) 1 b; 2 a; 3 b  
D) 1 b; 2 b; 3 b
102. Quyidagi yadro reaksiyasi natijasida 11,2 g radon izotopi yemirilishida  $1,505 \cdot 10^{23}$  ta elektron ajraldi. Hosil bo'lgan vismut izotopi tarkibidagi neytronlar sonini aniqlang.  
 ${}_{86}^{224}Rn \rightarrow Bi + x\alpha + y-\beta + z_0n$   
A) 123 B) 206 C) 110 D) 114

103. 110,4 g *Li* va *K* dan iborat aralashmaga suyultirilgan  $HNO_3$  ta'sir ettirilganda argonga nisbatan 10% og'ir bo'lgan 0,6 mol gaz ajraldi. Hosil bo'lgan kaliyli tuzning massasini (g) toping. Metallar faqat kislota bilan ta'sirlashadi deb hisoblang.  
A) 30,3 B) 242,4 C) 165,6 D) 20,7
104.  $X^{+2}$  ionining elektronlar soni  $Br^{-}$  ionining elektronlar sonidan 3 marta kam bo'lsa, bromning yadro zaryadi  $X$  ning yadro zaryadidan necha marta katta?  
A) 2,0 B) 2,5 C) 2,75 D) 3,6
105. Butin, butadiyen va buten aralashmasida butenning hajmiy ulushi 0,4ga teng. Shu aralashmaning necha grammni 320 g 4% li bromli suv rangsizlantiradi?  
A) 4,4 B) 2,74 C) 1,62 D) 2,82
106. 29,25 g qattiq holdagi ishqoriy metallning xloridi konsentrlangan  $H_2SO_4$  bilan ta'sirlashganda 293 K harorat va 1,2 atmosfera bosimida 10 l gaz ajralib chiqdi. Noma'lum metallni toping.  
A) *K* B) *Li* C) *Cs* D) *Na*
107. Temir (II) oksid va temir (III) oksidlarning 14,64 g aralashmasini eritish uchun 30% li nitrat kislota eritmasidan 105,02 g sarflangan bo'lsa, aralashmadagi oksidlarning massa ulushlarini (%) mos ravishda aniqlang.  
A) 34,4; 65,6 B) 32,5; 67,5 C) 30; 70 D) 37,3; 62,7
108. 35,2 g natriy gidrosulfiti, gidrokarbonati va gidroksidi aralashmasi mo'l miqdordagi xlorid kislota eritilganda  $D_{H_2}=25,33$  bo'lgan 0,3 mol gazlar aralashmasi ajraldi. Reaksiyaga kirishgan  $HCl$  massasini (g) aniqlang.  
A) 7,3 B) 18,25 C) 36,5 D) 73